


# PEDAGOGIK MAHORAT

**5**  
2021



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2021-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2021, № 5**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

**Elektron manzil:** ped\_mahorat@mail.uz

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N.Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Misyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyonov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>7</b>
Marg'uba MIRQOSIMOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkil etish .....	7
Bobirjon ERGASHEV. Professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalarini egallashlarida pedagogik strategiyalar .....	14
Sevara ADIZOVA. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar tahlili .....	19
Rita PAKHRATDINOVA. Designing students 'creative activity on national crafts as a factor of learning ..	24
Lola DJURAYEVA. Oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda "flipped classroom" texnologiyasidan foydalanish .....	30
Tohir NAZAROV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi loyihaviy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi .....	34
Shabon FARMONOVA. Ta'lim mazmunini loyihalashning didaktik imkoniyatlari .....	37
Rustam SARIYEV. Sirtqi ta'lim shakli talabalarini o'qitish jarayonida elektron ta'limning roli va ahamiyati .....	41
Наргиз ДЖУМАЕВА. "Синквейн" как эффективный метод развития устной и письменной речи студентов .....	46
Firuz NURULLOYEV. Zamonaviy o'qitish usullari: an'anaviy va zamonaviy ta'limning afzalliklari .....	51
Хикмат БОБОМИРЗАЕВ, Д.УМУРЗОКОВ, Нафосат АКМАЛОВА. Особенности развития компетентно-педагогической профессии .....	57
Bobir ZOKIROV. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining madaniy-ilmiy hamkorlik tarixi: muammolar va yechimlar .....	60
Mavluda KALANDAROVA. XIX asr Xiva xonligi solnomalarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy muhitning yoritilishi .....	64
Sherzod ABDURAHMANOV. Talaba-yoshlarni vatanparvarlikka o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ..	69
Xol XUDOYQULOV, Gulchexra ABDULLAYEVA, Sardorbek SHARIFZODA. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari .....	78
Manzura YULDASHEVA. Muqaddas ilohalar - salomatlik tayanchi .....	83
Dilrabo XUDOYQULOVA. Badiiy obrazlar vositasida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash .....	85
Abror ASKAROV. Multimediali darslarni loyihalashning ayrim jihatlari .....	88
Madimaxon TO'RABOYEVA. Pedagogik fanlar misolida talabalarning shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari .....	91
Ирода АСЛОНОВА, Озода ХОДИЕВА. Сравнительная оценка эффективности применения интерактивных методов обучения .....	94
Mahmud ASHUROV. Milliy g'urur va iftixor, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tushunchalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmun mohiyati .....	97
Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения .....	103
Zebo QOSIMOVA. Ta'lim jarayonida axborotlarga ratsional yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish ....	108
Zafar ASRAYEV. O'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish .....	110
Mirjalol JO'RAYEV. Elektr yuritmalari tezligini rostdash usullari .....	114
D. XOTAMOVA. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida .....	118
Hasan TO'XTAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari .....	121
Azamat SAIDOV. Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari	124
Qutlug'murod QODIROV. Islom madaniyati tarixini o'rganishda pedagogik va psixologik fikrlarni tahlil etishning o'ziga xos jihatlari .....	128
M. Kushanova. O'smirlar agressiv xulq-atvorining xorij va mamlakatimizda o'rganilganlik holati .....	131
Alisher SHARIPOV. O'smirlarda (11-15 yosh) irodaviy fazilatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-ma'naviy asoslari .....	137
J. SHUKUROV. Bo'lajak ofitserlar faoliyatida emotsional intellektning roli .....	140
Ziyodullo ELOV. Qobiliyatning shaxsi psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti .....	143
Olmos AVEZOV. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti .....	145



7. Zappe, S., Leicht, R., Messner, J., Litzinger, T., & Lee, H. W. Flipping the Classroom to Explore Active Learning in a Large Undergraduate Course. In Proceedings, American Society for Engineering Education Annual Conference & Exhibition.//[Электронный ресурс] URL: flipping-the-classroom-to-explore-active-learning-in-a-large-undergraduate-course
8. [www.en.wikipedia.org](http://www.en.wikipedia.org)
9. <https://mel.fm/shkola/928534-flipped-classroom>
10. King, Alison (1993). "From sage on the stage to guide on the side". College Teaching.
11. Sams, Aaron (11 November 2011). "The Flipped Class: Shedding Light on the Confusion, Critique, and Hype". The Daily Riff. Retrieved 7 April 2015.

**Tohir NAZAROV**

Buxoro davlat universitetini  
harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

## **CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI SUBYEKTLARINING DIDAKTIK JARAYONLARDAGI LOYIHAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI**

*Maqola "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi talabalarining o'quv faoliyatini loyihalash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda o'quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, bu mexanizmlarning joriy etilishini dunyo va respublikamizda olib boryotgan tadqiqotlarni tahlil qilish asosida o'rganish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan.*

*Kalit so'zlar: tashabbuskor, xalq manfaatini yo'lida bor salohiyatini saqarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis, loyihalash.*

*Статья посвящена проектированию учебной деятельности обучающихся по направлению "Дипломное военное образование", в рамках которой определяются педагогические условия организации учебного процесса, внедрение этих механизмов в мир и мир, в нашей стране проблемы, связанные с исследованием, изучаются на основе анализа проведенного исследования.*

*Ключевые слова: инициатива, мобилизация потенциала в интересах народа, смелый специалист, дизайн.*

*The article is devoted to the design of educational activities of students in the field of "Pre-service military education", in which to determine the pedagogical conditions for the organization of the educational process, the introduction of these mechanisms in the world and in our country, problems related to the study were studied based on the analysis of the research conducted.*

*Key words: initiative, mobilization of potential in the interests of the people, courageous specialist, design.*

**Kirish.** Hozirgi islohotlar sharoitida yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalash, milliy istiqbol, o'zligini anglash tuyg'usini bar bir kishi ongiga singdirish va uning ongli e'tiqodiga aylantirish, hozirgi davr talabi darajasida bilimni, uning ma'naviy dunyosini boyitish kabi ulkan vazifalar eng dolzarb masalalardir.

Ma'naviyatni yuksaltirish masalalariga bugungi kunda e'tibor kuchayib bormoqda. Mafkurasiz hech qanday jamiyat, davlat qurib bo'lmaydi. Bu borada o'tmish milliy ma'naviyatimizni, madaniyatimizni o'rganish, yoshlarimizda yuksak insomiy fazilatlarni shakllantirish, ilm-fanga qiziqish va intilishni rivojlantirish zarur. Shu jihatdan olganda, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalash ko'p jihatdan muhim ijtimoiy-pedagogik masalalar yechimini topishga xizmat qiladi.

Yuksak darajadagi mamlakat, davlat qurish uchun harbiylarning bilimi chuqur, dunyoqarashi keng, tafakkuri sog'lom bo'lishi kerak. Bunday yoshlar inson dunyoga qo'ldan kelgancha mehnat qilish, ijtimoiy muhitni, turmush sharoitini o'zgartirish maqsadida kelishini chuqur his qilishi lozim.

**Asosiy qism.** Ta'lim-tarbiya tizimi, harbiy va murabbiylar hayotiga o'z-o'zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib olgan murakkab yo'lga, ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy merosiga qarashlari va g'oyalari har bir kishining bevosita bog'liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko'maklashishi lozim. Harbiylarda milliy o'zlikni anglash, millatga, uning tarixiga mansubligini his qilishini shakllantirish kerak. Shu bilan birga, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlari (o'qituvchi va talabalar)ning didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalash texnologiyalarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'lumki, loyihalash - maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, qo'yilgan muammo yechimini topishga qaratiladi va uni o'zgartirish yo'llari va yechimlarini topishga zamin yaratadi.

"Loyiha texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimida tahsil oluvchida: tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan texnologiya. Ushbu texnologiya zaminida o'quv loyihalarini bajarishga yo'nalgan ta'lim maqsadi ilmiy mujassamlashtirishning ko'rish mumkin" [5, 17].

"Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalashning mazmun-mohiyatini zamonaviy sharoitda tadqiq qilish alohida tadqiqot predmeti sifatida talanmaganini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ilmiy-pedagogik, sotsiologik, falsafiy, tarixiy manbalarni qiyosiy-tipologik o'rganish asosida "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalash shart-sharoitlari va amaliyotdagi holatini ilmiy asoslashga zarurat mavjud.

Fikrimizcha, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalashga ko'ra malakaviy talablarni belgilash asosida aniqlashtirish, shuningdek, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalash bosqichlarini kengaytirish asosida model ishlab chiqish ehtiyoji sezilmoqda.

"Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirish orqali ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil muvohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin hozirlanadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil barakat etishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir. "O'quv loyihasi" tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni qidirish, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita [7, 94].

O'quv loyihasining didaktik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish;
- tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- qo'lga kiritiladigan natija uchun o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv jarayonini samarali qo'llash uchun bo'lajak "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi o'qituvchisi quyidagilarni bilish zarur:

- umumta'lim tayyorgarlikning har bir bosqichida ko'zda tutilgan hajmda texnologik ta'limning mazmuni;
- ko'rsatilgan mazmun hajmi doirasida talabalarning minimal zaruriy tayyorgarligiga bo'lgan talablar;
- o'qitish yillari bo'yicha o'quv yuklamani yo'l qo'yish mumkin bo'lgan maksimal hajmi.

**Muhokamalar va natijalar.** "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi o'quvchilarning analitik, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, isrok etishning mantiqiy usullarini o'zlashtirish va katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash maqsad qilib qo'yilgan, tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o'quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari xulosalar chiqarish, o'z nuqtayi nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasida asosiy e'tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi. Ma'lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lganda amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holatda, o'qituvchi talabalardan fanga doir tarqatma materiallar yoki o'yinlar ssenariysi, glossariy, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida talabalarda nafaqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi. O'quv loyihasida eng katta e'tibor talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha talabalarga o'zini namoyon eta olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ijodiy loyihalar o'quvchilarni guruhdagi maqomining oshishi, o'z-

o'zini baholashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va guruh jamoasi bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi [7, 104].

Barcha loyihalarga tashqi baho zarurligi to'g'risida alohida shuni qayd etish lozim, chunki faqat shu yo'l bilan ularning samaradorligi, kamchiliklar berligini, o'z vaqtida tuzatish ishlarini olib borish mumkin. Bunday baholash tavsifnomasi ko'pincha loyihaing tipi, uning mavzusi, mazmuni, o'tkazish shartlariga bog'liq bo'ladi. Agar bu tadqiqot loyihasi bo'lsa, u, albatta, o'ziga o'tkazish bosqichlarini ham qabul qiladi, bunda loyihadan muvaffaqiyat ko'p jihatdan alohida olingan bosqichlarda ishning to'g'ri tashkil qilinganligiga bog'lik bo'ladi. Shunga ko'ra talabalarining bunday faoliyatini bosqichlar bo'yicha kuzatish, uni qadam-baqadam baholab turish zarur.

"Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi talabalarining o'quv faoliyatini loyihalash bosqichlari quyidagicha tashkil etilsa, samarali natijalarni beradi:

- *birinchidan*, taqsimot yo'nalishi - o'quv mashg'uloti vazifalarni oqilona belgilash;
- *ikkinchidan*, maqsad va vazifalarni belgilash - o'quv mashg'ulotidan ko'zlangan istiqbolij rejalarini aniqlash;
- *uchinchidan*, teskari aloqani o'rnatish - o'quv mashg'uloti maqsadlariga erishish shakllari va yo'llarini tahlil qilish;
- *to'rtinchidan*, yaratuvchanlik yo'nalishi - mashg'ulotning idrok qilish muhitida o'quv maqsadlarining amalga oshirilishini ta'minlash;
- *beshinchidan*, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish;
- *oltinchidan*, motivatsiya va rag'batlantirish yo'nalishi - talabalarining hamda o'qituvchilarning ta'lim olish va ta'limga berish faoliyatini rag'batlantirish, tashqi stimullarni adekvat qabul qilish;
- *yettinchidan*, nazorat yo'nalishi - ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o'tkazishni nazarda tutadi, ma'naviy-ma'rifiy jarayon holati to'g'risidagi axborotga ega bo'lishni bildiradi.

Insonparvarlik asosida insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikka doir intilishlari, o'z qobiliyatlari, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e'tirof etib turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezonini sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi.

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi shundaki, har bir tarbiyalanuvchi bilish va muloqot faoliyatining to'la huquqli subyekti, tashabbuskor shaxs bo'la oladi. O'quv-tarbiya jarayonining insonparvarlashtirishning o'lebovi qanchalik bu jarayon shaxsning o'z-o'zini realizatsiyalashi uchun sharoit yaratganligi, undagi tabiiy layoqatni yuzaga chiqarganligi, uning erkinlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatlari bilan belgilanadi.

Xulosa. Shunday qilib, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirishda sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmatini, madaniyati va an'analarga ehtiyohtkorlik bilan qilingan munosabatda o'z ifodasini topadi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Abdullayeva M., Abdullayeva F., Abdurazzoqova G. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // To'ldirilgan uchinchi nashri. - T.: "Sharq", 2006. -528 b.
2. Nazarov Q. O'zbek falsafasi. -T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2013. - 464 b.
3. Новаков Д.А. Развитие патристических чувств у студентов педагогических вузов // Ж.: "Языкознание и литературоведение". -М., 2019, №5,-С.29-34.
4. Nisbolova S. Sharq uyg'oniish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Dis. ...ped. fan. dokt. // – T., 1998. -288 b.
5. Yusupova M.A. Loyiha texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish. -T.: "Universitet", 2020. - B.17.
6. Nosirxo'jayev S., Lafasov M., Zaripov M. Ma'naviyat asoslari. -T.: "Ma'naviyat", 2012. -456 b.
7. Neil Selwyn. Education and technology: key issues and debates. – New York: Continuum, 2011. p. 94.